

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
XITOYSHUNOSLIK FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash XXR milliy xavfsizlik
tizimini negizi sifatida**

Bajardi: 5231000-Xorijiy mamlakatlar
iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Xitoy
Xalq Respublikasi) ta'lim yo'nalishi
bitiruvchi kurs talabasi Usmonho'jayeva
Muhabbat Komiljon qizi _____(imzo)

Ilmiy rahbar: Xitoy siyosati, tarixi va
iqtisodiyoti kafedrasi o'qituvchisi
Nigmanov A.U. _____(imzo)

Ilmiy maslahatchi: Xitoy siyosati, tarixi va
iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Sadibekova B.Dj _____(imzo)

Toshkent – 2018

Bitiruv malakaviy ishi himoyasiga tavsiya etildi

Xitoyshunoslik

Xitoy siyosati, tarixi va iqtisodiyoti

fakulteti dekani

kafedra mudiri

f.f.n., dots. S.A.Hashimova

t.f.d., prof. N.E.Karimova

“ ____ ” _____ 20__yil

“ ____ ” _____ 20__yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY VA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI.....	8
1.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uni ta`minlashning ob`ektiv zarurligi.....	8
1.2. Iqtisodiy xavfsizlikning ko`rsatkichlari va mezonlari.....	17
II-BOB. XITOIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	24
2.1. Xitoyda iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash omillari va shart- sharoitlari.....	24
2.2. XXRda iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash muammolari.....	38
2.3. O`zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda XXR tajribasidan foydalanish yo`nalishlari.....	44
XULOSA.....	50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xitoy xalqaro maydondagi eng qudratli davlatlardan biri hisoblanadi. Qisqa tarixiy muddatda XXR ko'plab sohalarda, ayniqsa, iqtisodiyot va jahon siyosatida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. So'nggi yillarda Xitoy o'z milliy suverenitetini mustaxkamlab, jahonda kechayotgan iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta'sir o'tkaza boshladi.

O'z davlatida va mintaqada barqarorlik, tinchlik va tartibni ta'minlash Xitoyning eng ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Xitoy milliy xavfsizlik konsepsiyasiga muvofiq u boshqa davlatlarga hujum qilmaslik va jahonning barcha mamlakatlari bilan do'stona aloqalarni saqlab qolish yo'lidan bormoqda. Xitoy xalqi tomonidan erishilgan ulkan muvaffaqiyatlar xalqaro munosabatlar xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

XXRda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, bir tomondan, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirib borish, ikkinchi tomondan, milliy suverenitetni saqlab qolish asosida amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilarga qaramay XXRda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida qator muammolar mavjud. Mamlakat iqtisodiyotining yoqilg'i-energetika resurslari importiga bog'liqligi, don yetishtirishning ichki iste'molni to'liq qondira olmayotganligi mamlakat iqtisodiyotining ushbu sektorlarini jahon bozoridagi narxlar kon'yunkturasiga bog'liq qilib qo'ymoqda. Ayni vaqtda aholi soni va ichki iste'mol hajmining muttasil o'sib borayotganligi, aholining yer resurslari bilan ta'minlanishining pasayish tendensiyasiga ega bo'layotganligi bu muammolarni yanada keskinlashtiradi.

Shuni qayd etish lozimki, O'zbekistonda ham iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda shunga o'xshash muammolar mavjud. Mamlakatimiz eksportida mashina va uskunalar ulushining 2017 yilda atigi 2,6 foizga teng ekanligi, qo'shilgan qiymat darajasi yuqori tovarlar eksportining jami eksportdagi ulushining pastligi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot

hajmining jahonning o`rtacha ko`rsatkichlaridan sezilarli darajada past ekanligi iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda muammolarni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishayotgan mamlakatlar, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi tajribasini o`rganish va umumlashtirish asosida ularning ijobiy tajribasidan mamlakatimizda foydalanish bo`yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Jahon xo`jaligining globallashuvi sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash muammolari, iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati, shart-sharoitlari va mezonlari xitoy iqtisodchi olimlari tomonidan, xususan, Dong Suocheneng, Li zehong, Li Yu, Shi Guangyi, Yu Huilu, Wan Juanle, Li Jun¹, Lea Shan², Chu Yin³, Jia Qingguo⁴, Lyu Syaoin.⁵, bundan tashqari, jahon miqyosida bir qancha iqtisodchi olimlar: Kemel Toktomushev⁶, Christian Nunlist⁷, Gina Sorice and Rhonda Taylor⁸, MDH mamlakatlari iqtisodchi-olimlari – Abalkin L.I., Ageyev S.V., Avdiyskiy V.I., Bauer V.P., Buxvald Ye., Vechkanov G.S., Vlasov V.I., Glazev S.Yu., Zubes M.V., Kovalev Ye.V., Nazarenko V.I., Sabluk P.T., Simonova S.S., Sotichenko A.A., Chislov A.I.⁹ va boshqalarning ishlarida atroflicha yoritilgan.

¹ Dong Suocheneng, Li zehong, Li Yu, Shi Guangyi, Yu Huilu, Wan Juanle, Li Jun - "Environment and Economic Patterns and Sustainable Development Modes of the Silk Road Economic Belt" Journal of Resources and Ecology, 2015, 6(2), pp. 65-72

² Lea Shan- "Chinese investments in infrastructure worldwide"- June 2017

³ Chu yin- "Realisation of "One Belt, One Road" Strategy Requires More Careful Consideration", Aisixiang 1 January 2015

⁴ Jia Chingguo- "One Belt, One Road: Urgent Clarifications and Discossions of a Few Major Questions", Renmin Luntan, 19 March 2015

⁵ Lyu Syaoin "«Один пояс-Один Путь»: Прошлое, Нстоящее и Будущее, Шанхайский Университет, 9 октября 2017 года.

⁶ Kemel Toktomushev- "Central Asia and The Silk Road Economic Belt", University of Of Central Asia, 2015

⁷ Christian Nunlist- "One Belt, one Road: China's vision of "Connectivity", Germany, September 2016

⁸ Gina Sorice and Rhonda Taylor- Prospects and Challenges on China's "One Belt, One Road", England, 2016

⁹ Авдийский В.И., Бауэр В.П. Экономическая безопасность в системе трансформации мировой финансовой архитектуры // Эффективное антикризисное управление. 2010. № 1. С. 42–48.; Вечканов Г.С. Качество жизни населения как признак состояния общества. – СПб.: СПбГИЭУ, 2012. – 314 с.; Глазьев С. Ю. Основа обеспечения экономической безопасности страны: альтернативный реформационный курс // Российский экономический журнал. 1997. № 1. С. 8–9.; Глазьев С.Ю. Стратегия опережающего развития России в условиях глобального кризиса. – М.: Экономика, 2010. – 254 с.; Агеев С.В. Приоритетная поддержка малого и среднего бизнеса как важнейший фактор экономической безопасности страны // Нац. интересы: приоритеты и безопасность. - 2010. - N 18. - С.62-66.; Числов А. И. Защита и реализация экономических интересов России как основные направления обеспечения ее экономической безопасности / А. И. Числов, Е.

O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy va institusional jihatlari, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni va roli masalalari o'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar – Abulqosimov H.P., Alimov A.M., Vaxobov A.V., Jonixonov M., Isadjanov A.A., Rasulov T.S.,¹⁰ Rahmonov S., Rustamova I.B., Saidova D.N. Tursunov Sh.A.¹¹ i.f.n. E.A.Mahmudov,¹² dotsent B.D.Sadibekova¹³, dotsent G.A.Melibayeva¹⁴, o'qituvchi A.U.Nig'monovlarni¹⁵ va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi globallashtirish sharoitida Xitoy Xalq Respublikasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- turli iqtisodiy qarashlar va uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida “iqtisodiy xavfsizlik” atamasining mohiyati va ob'ektiv zarurligini ochib berish;
- iqtisodiy xavfsizlikning ko'rsatkichlar tizimi va mezonlarini bir tizimga keltirish;

А. Цишковский // Юридическая наука и правоохранительная практика. – 2006. – № 1.; Абалкин Л. И. Экономическая безопасность России / Л.И.Абалкин //Социально-политический журнал. –1997. – № 5. – С.3.; Бухвальд Е. Макроаспекты экономической безопасности: факторы, критерии и показатели / Е.Бухвальд, Н.Гловацкая, С.Лазуренко // Вопр. экономики. - 1994. - N 12. - С.25-35.

¹⁰ Abulqosimov H.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va yo'nalishlari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017. – 152 b.

¹¹Абулқосимов Ҳ.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. – Т.: АкадемиYA, 2012. – 362 б.; Вахобов А., Таджибаева Д., Хажибакиев Ш. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Т.: Молия, 2011. – 708 б.; Жонихонов М., Раҳмонов С. Озиқ-овқат дастури: мамлакат таракқиёти, иқтисодиёт барқарорлиги ва фаровонлиқнинг мустаҳкам асоси //Халқ сўзи, 2014 йил 7июнь.; Исаджанов А.А. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Ўқув қўлланма. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети. – Т., 2008. – 40 б.; Исаджанов А.А., Кенжабоева Р.М. Озиқ-овқат хавфсизлиги: замонавий тенденциялар ва миллий устуворликлар /“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2015 йил.; Саидова Д.Н., Рустамова И.Б., Турсунов Ш.А. Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. – Т.: “ЎЗР Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси” босмахонаси нашриёти, 2016. – 257 б.

¹² Mahmudov E.A. —O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida AKT sohasil o'quv qo'llanma. Toshkent.: 2010 y

¹³ B.D.Sadibekova —Xitoy iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma, TDSHI, 2013 y.

¹⁴ Melibayeva G.A., GaziyeV.F.Sh.. —Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligil. O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.

¹⁵ A.Nig'monov “Атомная энергетика Китая” ToshDSHI, 9-son, Xitoyshunoslik fakulteti birinchi ilmiy-amaliy konferensiyasi. T. – 02 may 2015 yil. 70-75 bet.

- XXRda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning hozirgi holatini tahlil qilish;
- Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy muammolarni aniqlash;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning XXR tajribasidan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti Xitoy Xalq Respublikasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash xususiyatlari hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishining **predmeti** bo'lib iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asosi bo'lib ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy va institusional jihatlarini takomillashtirish bo'yicha yirik iqtisodchi-olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy konsepsiyalar xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlardan ham keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining usullari. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa zamonaviy ilmiy o'rganish usullaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ko'rsatkichlari va mezonlari asosida XXRda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy holatiga baho berilgan;
- Xitoy Xalq Respublikasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tajribasidan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlangan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning materiallaridan O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Ilmiy axborot, nazariy xulosa va amaliy tavsiyalardan iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilab olingan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining **birinchi bobida** turli iqtisodiy qarashlar va uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida "iqtisodiy xavfsizlik" atamasining mohiyati va ob'ektiv zarurligi ochib berilgan, iqtisodiy xavfsizlikning ko'rsatkichlar tizimi va mezonlarini bir tizimga keltirilgan.

Ishning **ikkinchi bobida** XXRda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning hozirgi holati tahlil qilingan, Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy muammolar aniqlangan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning XXR tajribasidan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishning **xulosa** qismida bitiruv malakaviy ishining asosiy natijalari umumlashtirilgan.

I-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA`MINLASHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI

1.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uni ta`minlashning ob`ektiv zarurligi

Iqtisodiy xavfsizlik har qanday mamlakat hukumati iqtisodiy siyosatida markaziy o`rinni egallaydi. Zero, iqtisodiy xavfsizlikning ta`minlanmasligi birinchi navbatda hukumatning o`zi uchun xavf hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlikni tadqiq etish, eng avvalo, “xavfsizlik” atamasining o`zini tushunishni taqozo etadi.

“Xavfsizlik” atamasi ilmiy nuqtai nazardan aholining hayot faoliyati va rivojlanishi uchun resurslarga, texnologiyalarga, axborot va ma`naviy ideallarga bo`lgan tabiiy-fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy ehtiyojlarning himoyalanganligi sifatida tavsiflanishi lozim. Shu nuqtai nazardan maqsadga muvofiq bo`lmagan tashqi ta`sirlardan va radikal ichki o`zgarishlardan himoyalaniş, ya`ni xavfsizlikka bo`lgan ehtiyoj bazaviy va asosiy ehtiyojlardan hisoblanadi. Bu himoyalaniş alohida olingan shaxs uchun ham, davlat va mamlakat uchun ham birday muhim. Shundan kelib chiqqan holda xavfsizlikka sub`ektga tegishli bo`lgan o`zgarishlar va tashqi ta`sir natijasida ushbu sub`ekt sifatining o`zgarishi minimal bo`lgan holat sifatida qaraladi.

Turli xil xavfsizliklar orasida iqtisodiy xavfsizlik alohida o`ringa ega. Bu shu bilan izohlanadiki, xavfsizlikning barcha turlari iqtisodiy ta`minotsiz amalga oshmaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat milliy xavfsizligini ta`min etuvchi asosiy bo`g`inlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta`minlash yo`llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar yig`indisidir. Konseptual ko`rinishda u davlat iqtisodiy potentsiali holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi. Kuchsiz va samarasiz iqtisodiyot davlat xavfsizligini ta`minlashi mumkin emas. Bu ijtimoiy nizolarga to`la

jamiyatda, ayniqsa yaqqolroq namoyon bo`ladi. Chunki “iqtisodiy xavfsizlik” va “ijtimoiy xavfsizlik” o`zaro bog`liq tushunchalar bo`lib, bir-birini to`ldiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida barqaror rivojlanishni ta`minlovchi muhitni tashkil etuvchilar yotadi. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo`lishi mumkin emas. Barqarorlik – bu, jamiyatning favqulotda holatlarda hamda o`z manfaatlarini qondirish qobiliyati, vaziyatni tiklash imkoniyatidir.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi ilk bor resurslarni chegaralanganligi to`g`risidagi masala keskinlashgan bir paytda yuzaga keldi. Iqtisodiy xavfsizlik ko`p qirrali, murakkab va ziddiyatli tushuncha bo`lib, bu holat unga yagona ta`rif berishni qiyinlashtiradi. Shu sababli unga berilgan ta`riflar ko`p va ular bir-biridan qo`yilgan maqsad, tahlil usuli jihatidan farq qiladi.

Xususan iqtisodiy xavfsizlikka davlat tomonidan ichki va tashqi tahdidlarning mamlakat xo`jaligiga kuchli zarar yetkazishiga yo`l qo`ymaslikni kafolatlovchi sharoitlar sifatida qarash mumkin<sup>16</sup>. Boshqacha qilib aytganda, davlat pul-kredit, soliq, byudjet va boshqa moliyaviy siyosat turlaridan foydalanib, iqtisodiy vaziyatning ijobiy barqarorligini ta`minlaydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, “iqtisodiy xavfsizlik”ka berilgan ushbu ta`rifda davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan muhofaza mexanizmiga asosiy e`tibor qaratilmoqda.

Shunga yaqin ta`rif quyidagi ta`rifda ham keltirilgan: “Iqtisodiy xavfsizlik” – bu iqtisodiyotning shunday holatiki, bu uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning bir maromda davom etishiga xalaqit beradigan, aholining erishilgan turmush darajasini izdan chiqarib, jamiyatda kuchli ijtimoiy tanglikni yuzaga keltiradigan, shuningdek, davlatning mavjudligiga xavf tug`diradigan tashqi va ichki omillar ta`siriga bardoshli “immunitet”i bilan tavsiflanadi¹⁷.

Ayni vaqtda akademik L.Abalkin bu tushunchani ancha kengroq yoritadi: “iqtisodiy xavfsizlik – bu iqtisodiy tizimning shunday holatiki, u iqtisodiyotning

¹⁶Злоказов К. В. Репрезентация идей националистической направленности в креолизованном тексте /К.В. Злоказов // Политическая лингвистика. – 2014. – № 3 (49). – С.31.

¹⁷Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. – СПб.: 2007. – С.65.

dinamik va samarali rivojlanishini ta'minlashga, ijtimoiy vazifalarni hal etishga imkoniyat yaratadi. Bu holatda davlat mustaqil iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va hayotga joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi"¹⁸.

Ushbu ta'rifda nafaqat mavjud iqtisodiy vaziyatdan himoyalanih tamoyili, balki barcha darajadagi iqtisodiy sub'ektlarning yanada rivojlanishi uchun salohiyat ham hisobga olingan.

Boshqa bir ta'rifga ko'ra, "iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojini mustaqil ta'minlash nuqtai nazaridan jamiyatning iqtisodiy va ishlab chiqarish kuchlari holati, davlatning milliy xavfsizligi talab darajasida qo'llab-quvvatlanishi, shuningdek, global raqobat sharoitida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining zarur darajadaligini anglatadi"¹⁹. Ko'rinib turibdiki, bu qarash yuqoridagi qarashga mohiyatan yaqin.

Akademik L.I.Abalkin yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini chuqurroq ochib berish uchun uch omilga e'tibor qaratgan²⁰:

- iqtisodiy mustaqillik;
- milliy iqtisodiyotning barqarorligi;
- o'z-o'zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirlik.

Jahon xo'jalik tizimida globallashuv jarayonlari chuqurlashib, xalqaro integratsiya yer yuzining barcha mintaqalarini qamrab olayotgan zamonaviy iqtisodiy sharoitda hech bir mamlakat jahon xo'jaligidan ayro rivojlanishi mumkin emas, ya'ni mutlaq iqtisodiy mustaqil emas. Buning asosiy sababi shundan iboratki, xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvining kuchayishi milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o'zaro bog'liq qilib qo'yadi. Shu sababli bugungi kunda iqtisodiy mustaqillik deganda davlatning iqtisodiy zahiralar ustidan nazorat o'rnatish imkoniyati, jahon savdosida, kooperatsiya aloqalarida, ilmiy-texnika

¹⁸ Абалкин Л. И. Экономическая безопасность России / Л.И.Абалкин // Социально-политический журнал. – 1997. – № 5. – С.3.

¹⁹ Бухвальд Е. Макроаспекты экономической безопасности: факторы, критерии и показатели / Е.Бухвальд, Н.Гловацкая, С.Лазуренко // Вопр. экономики. - 1994. - N 12. - С.25-35.

²⁰ Абалкин, Л. А. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение // Вопросы экономики. – 1994. – № 12. – С. 4–13.

yutuqlarini ayirboshlashda teng ishtirok eta olishi va raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan ishlab chiqarish, samaradorlik va sifat darajasiga erishishi tushuniladi.

Shu bilan birga milliy iqtisodiyotning barqarorligi mulkchilikning barcha shakllari himoya qilinishini, tadbirkorlik faoliyati uchun zaruriy shart-sharoit va kafolatlarning yaratilishini, mamlakatdagi vaziyatning yomonlashuviga, beqarorlikka olib keladigan holatlarning jilovlanishini taqozo etadi.

Shu bilan birga iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanishi uchun iqtisodiyotning o'z-o'zidan rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanishi qulay investisiya va innovatsiya muhitning yaratilishi, ishlab chiqarishning muntazam modernizatsiyalashib, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy darajasining o'sib borishi bilan yaqindan bog'liq. Aks holda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlab bo'lmaydi.

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin: iqtisodiy xavfsizlik — bu, davlat iqtisodiy tizimiga ta'sir qiluvchi va uning eng kam chiqim bilan, bosqichma-bosqich barqaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng ko'p ifodalanishiga imkon beruvchi (ichki va tashqi) shart va omillar yig'indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflar va yo'qotishlarga qarshi turish qobiliyatidir.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli sub'ektlariga tegishli va ular quyidagilardan iborat: alohida fuqarolar; xususiy tadbirkorlik, biznes; davlat korxonalari; milliy iqtisodiyot; davlat. Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, turli beqarorlikni, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki imkoniyatlar bilan bog'liqdir.


Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi

raqobatbardoshligi, milliy valyutaning barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

Alohida ta'kidlab o'tish joizki, "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi "risk" (tavakkalchilik) kategoriyasi bilan uzviy bog'liqdir. Uzoq yillar davomida iqtisodiyotni boshqarish nazariyasi va amaliyotida, ayniqsa, makroiqtisodiyot darajasida uning rivojlanishiga qat'iy belgilangan jarayon sifatida qaralgan. Ushbu jarayonda xo'jalik qarorlarining ko'zda tutilmagan natijalarga olib kelishi, takror ishlab chiqarish jarayonlari buzilishining salbiy oqibatlari nazarda tutilmas edi. Bu esa "iqtisodiy risk" omillariga e'tibor bermaslik oqibati edi. Zero iqtisodiy risk kategoriyasi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda riskni baholash bilan uni boshqarishni bir-biridan farq qilish lozim.

Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va qabul qilingan xo'jalik qarorlari oqibatlarining noaniqligi tufayli riskni baholash ehtimollik kasb etadi. Bu jarayonni boshqarish favqulodda sodir bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy xodisalarni oldindan payqab, ularning oqibatlarini yumshatish, kuchsizlantirish va bartaraf etish imkonini yaratadi. Albatta, tanglik holatining paydo bo'lish ehtimolligini baholash bilan bir qatorda u bilan bog'liq ravishda ko'riladigan zarar va yo'qotishlarni ham oldindan baholash zarurati tug'iladi. Demak, iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash risk omillarini tahlil qilish bilan birgalikda "yo'qotish" (zarar) kategoriyasidan foydalanishni ham taqozo etadi. Yo'qotish, zarar haqiqiy, kutilgan, potensial, kompensatsiyaviy, ya'ni o'rni to'ldiriladigan va to'ldirilmaydigan bo'lishi ham mumkin.

Hozirgi paytda davlat iqtisodiy xavfsizligining tarkibiy elementlari sifatida inson resurslari, texnik-ishlab chiqarish, texnologik, oziq-ovqat, energetik, boshqaruv va axborot xavfsizligi tashkil etadi (1.1.1-rasm).

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi tizimi

Manba: Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shubhasiz, har qanday mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy tashkil etuvchisi inson resurslari hisoblanadi. Bunda uning nafaqat miqdoriy, balki sifat ifodasi ham muhim rol o'ynaydi. Tashkiliy tuzilmalarning asosiy elementi – bu insonlar, ularning maqsadlari, faoliyati va munosabatlari ekan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan o'z vazifalarining hal etilishi ham ko'p jihatdan tashkiliy tuzilmalarga kiritilgan insonlarning faoliyatiga, kadrlarni boshqarish rasional tizimining barpo etilganligiga, ya'ni ularning maqsadga muvofiq tanlanganligiga, joy-joyiga qo'yilganligiga, moslashuv jarayonining maqsadga muvofiq o'tkazilishiga, mehnat faoliyatining rag'batlantirilishiga, sifat jihatdan rivojlanishiga va kasbiy jihatdan o'sishiga bog'liq bo'ladi²¹.

Davlat iqtisodiy xavfsizligi uchun uning texnik-ishlab chiqarish elementi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga qayd etish lozimki, mamlakatimizda ishlab chiqarish vositalari importi hajmining salmoqli tarzda o'sishi natijasida ushbu

²¹ Числов А. И. Защита и реализация экономических интересов России как основные направления обеспечения ее экономической безопасности / А. И. Числов, Е. А. Цишковский // Юридическая наука и правоохранительная практика. – 2006. – № 1. – С.15.

vositalar bo'yicha mamlakatimiz xorijiy mamlakatlarga tobora ko'proq tobe' bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlikning texnologik tashkil etuvchisi mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining shunday holatini ifodalaydiki, u eng qisqa muddat ichida fuqarolik va mudofaa ishlab chiqarishining yetakchi tarmoqlarida yuksak rivojlanishni ta'minlaydigan texnologik qarorlarni ishlab chiqishni kafolatlaydi. Ayniqsa, ishlab chiqarishga jalb etilayotgan resurslarning salmog'i kam bo'lgan holatda kishilarning ishlab chiqarish va shaxsiy ehtiyojlarini qondira oladigan novatsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar axborot texnologiyalarini rivojlantirishga yuqori darajada e'tibor qaratadilar. Axborot tarmoqlarining rivojlanishi o'z navbatida bilimlar ishlab chiqaruvchilari, ularni tarqatuvchilari va foydalanuvchilari sonining o'sishini ko'zda tutadi. Shuningdek, axborotlar olishni bir necha marta yengillashtirar ekan, ular hayotga yanada global xarakter baxsh etadi.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimining muhim elementi oziq-ovqat xavfsizligi hisoblanadi. U iqtisodiyotning qishloq xo'jalik sektori mamlakat aholisini oziq-ovqat, sanoatni zaruriy qishloq xo'jalik xomashyosi bilan ta'minlashini ko'zda tutadi.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimida energetika xavfsizligining roli katta. U milliy iqtisodiyot va mudofaa majmuasi ehtiyojlari uchun energiya tashuvchilarini barqaror yetkazib berishni ko'zda tutadi. Bu ayniqsa, yoqilg'i-energetika resurslari taqchil bo'lgan mamlakatlar, xususan, Yaponiya, XXR va qator Yevropa mamlakatlari uchun alohida ahamiyatga ega. Ayni vaqtda yoqilg'i-energetika resurslariga boy mamlakatlarda bu omil iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, Fors ko'rfazi arab mamlakatlari, Rossiya kabi mamlakatlar iqtisodiyoti ko'p jihatdan jahon yoqilg'i bozoridagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qolgan. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashna salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlikning barcha tarkibiy komponentlarida

milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash va turli tahdidlarga qarshi harakat uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda davlat kafolati talab etiladi.

Demak, globallashuv jarayonlari chuqurlashib, raqobat kurashi murosasiz tus olayotgan vaziyatda iqtisodiy xavfsizlikka daxl qiluvchi, mamlakatning milliy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tahdidlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.


Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar deganda shunday hodisalar va jarayonlar tushuniladiki, ular mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy manfaatlarini cheklaydi, milliy qadriyatlar va milliy hayot tarziga xavf tug'diradi.


Iqtisodiy xavfsizlik amaliyotida bu tahdidlar ikki turga bo'linadi: ichki va tashqi.

Ichki tahdidlar – bu o'z-o'zini asray olish va takomillashtira olish qobiliyatining mavjud emasligi, rivojlanishda innovasiya unsurlarining zaifligi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning samarali emasligi, jamiyat evolyusiyasining og'riqsiz yo'llarini izlab topish uchun qarama-qarshiliklar va ijtimoiy tangliklarni bartaraf etishda manfaatlar mutanosibligini topish qobiliyatining mavjud emasligidir.

1.1.2- rasm.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar





Manba: Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tashqi tahdidlar – bu jahon narxlari kon`yunkturasi va tashqi savdoning o`zgarishi, milliy valyuta kursining tebranishi, kapital kirishiga nisbatan uning chiqib ketish hajmining yuqori bo`lishi, importga ortiqcha bog`lanib qolish, xomashyo tovarlari eksportining haddan ziyod bo`lishi va boshqalardir.

Bizning fikrimizcha, O`zbekiston iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta`sir etuvchi tashqi tahdidlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xom ashyo bazasi va past sifatli, raqobatbardosh bo`lmagan mahsulotlar sotiladigan bozor sifatida qolib ketish;
- tashqi transport, axborot va ilmiy-texnika kommunikasiyalari tizimining rivojlanmaganligi;
- mamlakat iqtisodiyotining ba`zi turdagi xom ashyo bozorlaridagi narxlar o`zgarishiga bog`liqligi;
- mamlakatimizning anklav davlat va xalqaro dengiz yo`llaridan uzoqda ekanligi va boshqalar.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta`sir etuvchi ichki xavflar quyidagilardan iborat:

- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tarmoq va hududiy disproporsiyalar;
- yer-suv va ayrim turdagi muhim mineral xomashyo resurslarining cheklanganligi;
- milliy iqtisodiyotga va ba`zi hududlar iqtisodiyotiga yuqori demografik

bosimning mavjudligi;

- sanoatning ko'plab tarmoqlarida asosiy fondlar eskirish darajasining yuqoriligi va boshqalar.

So'nggi yillarda mamlakat va mintaqalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy omillarning roli ortmoqda. Ijtimoiy fikr bilan manipulyasiya qilish texnologiyalaridan foydalanish, aksiyalar tashkil etish davlat hokimiyatining inqiroziga sabab bo'lmoqda. Bu rangli inqiloblarga ham tegishli. Zero, iqtisodiy ahvoli og'ir aholini, shuningdek, yoshlarni rangli inqiloblarga jalb etish ancha yengil. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlikning barcha tarkibiy elementlari o'ziga xos o'ringa ega.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, kadrlar siyosatini rasional olib borishning moddiy asosi hisoblanadi.

1.2. Iqtisodiy xavfsizlikning ko'rsatkichlari va mezonlari

Davlatning eng muhim vazifasi - jamiyat barqarorligi va rivojlanishini ta'minlash, mamlakat xavfsizligiga taxdidlarni bartaraf etishdan iborat. Endigina vujudga kelayotgan xavfning oldini olish iqtisodiy taxdidlarning chuqurlashib ketishini passiv kuzatib turishga qaraganda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, oqilona yondashuvga tayangan bunday sa'y-harakatlar xavfni oldini olishning asosiy tamoyili bo'lishi mumkin. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning barcha faoliyat sohalarining holatini ko'rsatib belgilovchi ko'rsatkichlarining monitoringini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu monitoring jarayonida iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va ularni o'zgarish tendensiyalari va istiqbolini aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, iqtisodiyot murakkab tizim sifatida uning holatini tavsiflovchi

minglab ko'rsatkichlarga ega. Faqat O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi jadvallarda 300 dan ortiq ko'rsatkichlar mavjud. Shu sababli mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligi holatini tahlil qilish uchun ular ko'rsatkichlar tizimi va mezonlar bilan to'ldirilishi lozim.

Ma'lumki, statistik ko'rsatkichlar dinamikasi mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga baho berish uchun yetarli emas, chunki umumiy statistik ko'rsatkichlar xoh u ijobiy bo'lsin, xoh salbiy o'z-o'zicha ko'p narsa haqidama'lumot bermaydi. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlikka baho berish muayyan mezonlar vositasida amalga oshrilishi maqsadga muvofiq. Biroq hamma savolga javob beradigan mezonlar ham mavjud emas. Shu sababli har qanday mezonlar baholash xarakteriga ega, xolos.

Odatda mamlakat iqtisodiy xavfsizlik darajasiga baho berishda iqtisodiy xavfsizlikning quyi va yuqori tahlikali chegaralari belgilanadi.

Ilmiy adabiyotda iqtisodiy xavfsizlik quyi tahlikali chegarasiga oid indikatorlar 50 ta ko'rsatkichni qamrab olgan holda quyidagicha turkumlangan:

1) iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investisiyalar, foydali kazilma boyliklarining zaxiralari bo'yicha quyi tahlikali chegarani ifodalovchi indikatorlar;

2) moliyaviy tizim barqarorligi ko'rsatkichlariga davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

3) ijtimoiy soha ko'rsatkichlari aholi daromadlari darajasi va uning mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik va ijtimoiy soha xarajatlari bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni o'z ichiga oladi;

4) tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Iqtisodiy adabiyotda iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari sifatida S.Yu.Glazev taklif etgan turkumlashdan ko'proq foydalanilmokda. Bu ko'rsatkichlar turkumiga quyidagilar kiradi:

- yalpi ichki mahsulotning umumiy va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi;
- sanoat mahsulotlari umumiy hajmida qayta ishlash sanoati mahsulotlari ulushi;
- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlikning ulushi;
- investisiyalar hajmining YaIMga foiz hisobidagi nisbati;
- ilmiy tadqiqotlar uchun xarajatlarning YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- yangi turdagi mahsulotlarning yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmidagi ulushi;
- yashash minimumi darajasidan past daromad oluvchi kishilar ulushi;
- aholining urtacha umr uzokligi (yosh);
- aholining eng yukori daromad oluvchi 10 foizi va eng kam daromad oluvchi 10 foizi guruhlar daromadlari urtasidagi nisbat;
- qayd etilgan jinoyatlar xar 100000 kishi x, isobiga;
- Xalkaro Mehnat Tashkiloti (XMT) metodologiyasi bo'yicha ishsizlik darajasi (foiz hisobida);
- yillik inflyasiya darajasi (foiz hisobida);
- ichki qarzlar hajmining YaIMga nisbati (foiz hisobida, kiyosiy davrda);
- ichki qarzlarni qoplash va ularga xizmat ko'rsatish uchun joriy ehtiyojning byudjetga soliq tushumlari hajmidagi ulushi (foiz hisobida);
- tashki qarzning YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- tashki qarzning YaIM kamomadini qoplashdagi ulushi;
- xorijiy valyutalar miqdorining milliy valyuta massasiga nisbati (foiz hisobida);
- naqd xorijiy valyuta miqdorining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati (foiz hisobida);

- pul massasining YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- ichki iste'molda importning hissasi, jumladan, ichki oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli hajmida import oziq-ovqat mahsulotlari ulushi (foiz hisobida);
- aholi yashash darajasi bo'yicha mamlakat hududlari o'rtasidagi farqlar.

Ko'rsatkich miqdori quyi chegaradan past tushgandagina iqtisodiy tahdid vujudga keladi. Bu chegara - iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan ho'jalik nisbatlarining eng quyi maqbul nisbatlarini ifodalovchi miqdoriy indikatorlar bo'lib, ularga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarining iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga taxdid soladi.

Tahlikali chegaralarni belgilash bo'yicha ham iqtisodiy adabiyotlarda turli xil qarashlar mavjud. Bu iqtisodiy xavfsizlik muammosining murakkabligi va ko'p qirraligi bilan izohlanadi.

Jamiyatning xavfsiz rivojlanishi chegaralarini aniqlash uchun miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birga sifat ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlik mezonlari deganda iqtisodiy xavfsizlik darajasining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini ifodalovchi belgilar majmuini tushunish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik mezonlari iqtisodiyotning joriy holatiga baho berish imkonini beradi.

Xususan, akademik Bogomolov V.A. mamlakat iqtisodiy holatini aniqlashga yordam beradigan quyidagi mezonlarni ajratib ko'rsatadi²²: birinchi – mamlakat rivojlanishining barqarorligi mezonlari, ikkinchi – pasayish davridagi yo'qotishlarning o'rnini tiklash darajasi mezonlari, uchinchi – milliy manfaatlarga, mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o'rniga, uning istiqboldagi rivojlanish maqsadlari, vazifalariga muvofiqligi mezonlari

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy xavfsizlikka baho berish bitta mezon bilan chegaralanmaydi. Shu sababli aytishimiz mumkinki, iqtisodiy xavfsizlik

²² Богомолов В.А. Экономическая безопасность. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – С.17.

iqtisodiyot holatining ko`pmezoni tavsifidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida iqtisodchi-olimlar quyidagi mezonlar ajratib ko`rsatiladi:

- turmush darajasi va sifati;
- inflyasiya sur`ati;
- byudjet defisiti;
- ishsizlik me`yori;
- iqtisodiy o`sinh;
- davlat qarzi;
- oltin-valyuta zaxiralari;
- jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuv darajasi;
- “xufiyona iqtisodiyot” faoliyati;
- mulk tarkibi;
- soliq tizimi;
- bozor infratuzilmalarining rivojlanishi.

Ba`zi olimlar fikricha, iqtisodiy xavfsizlikka ko`plab ko`rsatkichlar orqali integral baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshqa bir guruh olimlar esa har bir mamlakat o`z iqtisodiy xavfsizligi uchun o`zi indikatorlar tizimini ishlab chiqishi va shu asosda tahlikali chegaralarni belgilashlari lozim deb hisoblaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy manbalarni o`rganish natijalari shuni ko`rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlik mezonlari quyidagilardan kelib chiqqan holda aniqlanishi mumkin:

- iqtisodiyot sohalari tasniflanishi (moliya sohasi, ijtimoiy soha, tashqi iqtisodiy soha va boshqalar);
- vujudga keladigan tahdidlar (hayot darajasi va sifatining pasayishi – qashshoqlik darajasi, umr ko`rish uzoqligi mezonlari va boshqalar)

Iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegaralari

Ko`rsatkichlar	Tahlika li chegara	Ko`rsatkichlar	Tahlika li chegara
1. Iqtisodiyotning barqaror rivojlana olish qobiliyati		2. Ijtimoiy soha	
Qayta ishlash sanoatining jami sanoatdagi ulushi, %	20	Yashash minimumidan past darajada yashayotgan aholining ulushi, %	7
Innovasion mahsulotlarning jami sanoatdagi ulushi, %	15	Aholining umr ko`rish uzoqligi, yil	70
Mashinasozlikning jami sanoatdagi ulushi, %	20	Eng yuqori va eng past 10 foiz aholi qatlamlari daromadlari o`rtasidagi nisbat, marta	8
Investisiyalarning YaIMdagi ulushi, %		Jinoyat darajasi (100 ming kishiga to`g`ri keladigan jinoyatlar), ming	5
Harbiy xarajatlar, YaIMga nisbatan %	5	Ta`limga xarajatlar, YaIMga nisbatan %	10
Ilmiy tadqiqotlarga xarajatlar YaIMga nisbatan %	2	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishsizlik, %	7
Yangi turdagi mahsulot turlarining mashinasozlikdagi ulushi, %	6	Aholi jon boshiga to`g`ri keladigan o`rtacha pul daromadlarining yashash minimumiga nisbati,%	250
3. Tashqi savdo		Madaniyatning YaIMdagi ulushi,%	0,5
1. Import bo`yicha olingan resurslarning tovar resurslarining umumiy hajmiga nisbati, % shu jumladan:	30	Sog`liqni saqlashning YaIMdagi ulushi, %	1,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	25	Ta`limning YaIMdagi ulushi, %	1,5
Kimyo va neft kimyosi mahsulotlari	30	4. Moliya tizimining barqarorligi	
Engil sanoat mahsulotlari	30	Yillik inflyasiya darajasi, %	20
Mashina va uskunarlar	20	Ichki qarzlarning YaIMga nisbati, %	30
2. Eksportning jami ishlab	30	Ichki qarzlarga xizmat	

chiqarilgan mahsulotdagi ulushi,% Shu jumladan:		ko`rsatish va ularni uzishga bo`lgan joriy ehtiyojlar, byudjetning soliq tushumlariga nisbatan, %	
Yoqilg`i-energetika mahsulotlari	25	Tashqi qarz, YaIMga nisbatan %	25
Neft	25	Byudjet kamomadi, YaIMga nisbatan %	5
Qora va rangli metallurgiya	30	Oltin valyuta zaxiralari, mlrd. dollar	15
3. Importning ichki iste`moldagi ulushi, % Shu jumladan:	30	Monetizasiya darajasi, YaIMga nisbatan %	50
Oziq-ovqat mahsulotlari	25		

Manba: Экономическая безопасность России (тенденции, методология, организация) / под ред. В.К. Сенчагова. М.: Институт экономики РАН. 2000.

Ushbu me`yorlar asosida mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga baho berish uchun haqiqatda erishilgan natija tahlikali chegara (me`yor)lar qiymati bilan solishtiriladi.

Bunday usulda mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasiga baho berishning asosiy kamchiligi ko`rsatkich (indikator)larning aniqlik va haqqoniylik darajasini aniqlashning murakkabligi, ijtimoiy-iqtisodiy tizim xususiyatlarini hisobga oladigan ko`rsatkichlarni aniqlash bo`yicha uslubiy tavsiyalarning mavjud emasligidir.

XULOSA

XXRda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishi natijalarini umumlashtirish quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Iqtisodiy xavfsizlik ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli tushuncha bo'lib, bu holat unga yagona ta'rif berishni qiyinlashtiradi. Ushbu atamaga berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin: iqtisodiy xavfsizlik — bu, davlat iqtisodiy tizimiga ta'sir qiluvchi va uning eng kam chiqim bilan, bosqichma-bosqich barqaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng ko'p ifodalanishiga imkon beruvchi (ichki va tashqi) shart va omillar yig'indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflar va yo'qotishlarga qarshi turish qobiliyatidir.

2. Hozirgi paytda davlat iqtisodiy xavfsizligining tarkibiy elementlari sifatida inson resurslari, texnik-ishlab chiqarish, texnologik, oziq-ovqat, energetika, boshqaruv, axborot, moliyaviy va tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ajratib ko'rsatish mumkin.

3. Iqtisodiy xavfsizlik amaliyotida bu tahdidlar ikki turga bo'linadi: ichki va tashqi.

Ichki tahdidlar – bu o'z-o'zini asray olish va takomillashtira olish qobiliyatining mavjud emasligi, rivojlanishda innovasiya unsurlarining zaifligi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning samarali emasligi, jamiyat evolyusiyasining og'riqsiz yo'llarini izlab topish uchun qarama-qarshiliklar va ijtimoiy tangliklarni bartaraf etishda manfaatlar mutanosibligini topish qobiliyatining mavjud emasligidir.

Tashqi tahdidlar – bu jahon narxlari kon'yunkturasi va tashqi savdoning o'zgarishi, milliy valyuta kursining tebranishi, kapital kirishiga nisbatan uning chiqib ketish hajmining yuqori bo'lishi, importga ortiqcha bog'lanib qolish, xomashyo tovarlari eksportining haddan ziyod bo'lishi va boshqalardir.

4. Ma'lumki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri iqtisodiyotning barqaror rivojlanishidir. Iqtisodiy rivojlanishsiz iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlab bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2010-2017 yillar davomida jahon yalpi ichki mahsulotining o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati Xitoyda esa 7,91 foizni tashkil etgan. Bu shundan dalolat beradiki, XXRda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili sifatida yalpi ichki mahsulotning ayniqsa aholi soni o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lishi ijobiy holat hisoblanadi.

5. 2017 yil yakunlariga ko'ra, Xitoy sanoatining 41 tarmog'ining 36 tasida (87,8 foiz), shu jumladan, to'qimachilik (4 foiz), kimyo (3,8 foiz), nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (3,7 foiz), qora metallurgiya (0,3 foiz) sanoatlarida o'sish kuzatildi. 2017 yilda XXRda ishlab chiqariladigan 596 ta sanoat mahsulotlaridan 427 tasida ishlab chiqarish hajmi ijobiy dinamikani namoyon qildi.

6. Ma'lumki, iqtisodiy xavfsizlikni, ayniqsa, uning tarkibiy qismi hisoblangan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi alohida ahamiyatga ega. Agar XXR qishloq xo'jaligi rivojlanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2017 yilda qishloq xo'jaligida, ayniqsa uning don sektorida vaziyat ancha yaxshilandi. Donli ekinlar ishlab chiqarish 2016 yilda 1,66 mln tonnaga, ya'ni 0,3 foizga o'sib 617,91 mln. tonnaga yetdi. Qand lavlagi ishlab chiqarish 2017 yilda 125,56 mln. tonnagacha o'sdi. Paxta ishlab chiqarish 5,49 mln. tonnaga yetdi.

7. Chorvachilik tarmog'i ham pozitiv dinamika namoyon etdi. 2017 yil davomida 84,31 mln.tonna go'sht ishlab chiqarildi. Bu 2016 yilga nisbatan 0,8 foizga ko'p. Cho'chqa go'shti ishlab chiqarish 0,8 foizga o'sdi va 53,4 mln. tonnaga yetdi, mol go'shti – 1,3 foizga o'sdi va 7,26 mln. tonnaga, qo'y go'shti – 1,8 foizga o'sdi va 4,68 mln. tonnaga, parranda go'shti 0,5 foizga o'sdi va 18,97 mln. tonnaga yetdi. Bundan tashqari mamlakat miqyosida 33,45 mln. tonna sut va 30,7 mln. tonna tuxum yetishtirildi. Dengiz mahsulotlari ishlab chiqarish 2016 yilga nisbatan 2017 yilda 0,5 foizga o'sdi va 69,38 mln.tonnani tashkil etdi.

8. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda xorijiy investisiyalar jalb etish alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiyotga jalb etilgan xorijiy investisiyalar hajmi bo'yicha (131,0 mlrd. dollar) Xitoy xuddi 2016 yildagidek, 2017 yilda ham AQShdan keyin 2-o'rinni egalladi. 2017 yilda Xitoy kapital qo'yilmalarining keskin qisqarishi yuz berdi. 2017 yilda ular 120,1 mlrd. AQSh dollariga teng bo'ldi. Ammo shunga qaramay bu ko'rsatkich bo'yicha Xitoy yetakchi mamlakatlar safida qoldi. Mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan investisiyalar hajmi mamlakatdan chiqarilgan investisiyalar hajmiga nisbatan 11 mlrd. AQSh dollariga ko'p bo'ldi va bu holat iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

9. Hukumat tomonidan valyuta nazoratining kuchaytirilishi Xitoy oltin-valyuta zaxiralarining ko'payishiga olib keldi. 2017 yil dekabr holatiga ko'ra 2016 yilga nisbatan mamlakat oltin-valyuta zaxiralari 4,3 foizga o'sib, 3,14 trln. dollarga yetdi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligining muhim ko'rsatkichi hisoblangan oltin-valyuta zaxiralarining o'sishi Xitoy milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishayotganligidan dalolat beradi.

10. Garchi so'nggi yillarda Xitoyda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari kuzatilayotgan bo'lsa-da, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida muammolar mavjud. Bu muammolardan biri mamlakatni don mahsulotlari bilan ta'minlashdir. XXRda 2016 yilda 128,9 mln tonna g'alla yetishtirilgan va 2006-2016 yillar davomida XXRda g'alla ishlab chiqarish hajmi qariyb 1,2 martaga oshgan. Shunga qaramasdan Xitoy yirik miqdorda g'alla import qiladi. Xususan, 2006-2016 yillar oralig'ida g'alla importi 10 barobargacha ortib, 4,4 mln tonnaga yetdi.

11. Xitoyda iqtisodiy xavfsizlik borasidagi yana bir muhim muammo sanoat ishlab chiqarishini xomashyo bilan ta'minlash bilan bog'liq. So'nggi yillarda Xitoy sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi sanoat ishlab chiqarishi uchun xomashyo taqchilligini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli XXRda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar natijasida 2016-2017 yillarda mamlakat qora

metallurgiya sanoatida faoliyat ko`rsatayotgan 115 mln. tonna hajmdagi ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari tugatildi.

12. So`nggi yigirma yilda XXR jahondagi eng yirik xom ashyo iste`molchisiga aylandi va bu holat yuanning revalvasiyasi bilan birga bordi. Xitoy tomonidan import qilinadigan asosiy xom ashyo tovarlari yoqilg`i-energetika mahsulotlari (jami xomashyoning 45 foizi) va mineral xomashyo resurslari (32 foiz ruda va metallar, 10 foiz temir rudasi), shuningdek, qora metall mahsulotlari (5 foiz) hisoblanadi.

13. XXRda neft ishlab chiqarish hajmi 2010-2016 yillar davomida deyarli o`zgarmay qolgan va 2016 yilda 199,7 mln. tonnani tashkil etgan bo`lsa, neft iste`moli 448,5 mln. tonnadan 578,7 mln. tonnagacha, ya`ni qariyb 30 foizga o`sgan. 2016 yilda iste`mol hajmi neft ishlab chiqarishga nisbatan qariyb 3 barobarga ko`p bo`lgan. 2010-2016 yillar davomida neft importi 232,7 mln. tonnadan 382,6 mln. tonnagacha o`sgan. Bugungi kunda XXR neft import qilish bo`yicha jahonda birinchi o`rinni egallaydi. Albatta, bunday sharoitda mamlakat iqtisodiyoti jahon neft bozoridagi narx kon`yunkturasiga bog`liq bo`lib qoladi.

14. Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha XXRdagi yana bir muhim muammo Sharqiy va G`arbiy mintaqalari rivojlanishidagi nomutanosib rivojlanish hisoblanadi. Mamlakatda sanoati rivojlangan Sharq va qoloq Sharqning mavjudligi XXRning istiqbolida barqaror rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadigan asosiy omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi qonuni (Yangi tahriri) (“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi”, 2000 yil, 5-6-son, 148-modda)
3. O'zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi qonuni (“O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami”, 2009 yil, 39-son, 424-modda.)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4853-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5177-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5303-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 noyabrdagi “Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini lisenziyalash, shuningdek, eksport kontraktlarini

ro'yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5215-son Farmoni

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-son Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 noyabrdagi "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3351-son qarori

11. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

12. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

13. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

14. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

15. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. /Sh.M.Mirziyoev. – T.: Uzbekiston, 2017. - 592 b.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2017 yil 7 dekabr. // <http://press-service.uz/uz/lists/view/1328>

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. // <http://press-service.uz/uz/lists/view/1371>

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. 2018 yil 11 yanvar. // <http://press-service.uz/uz/lists/view/1419>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. 2018 yil 12 yanvar. // <http://press-service.uz/uz/lists/view/1423>
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi. 2018 yil 27 mart. // <http://press-service.uz/uz/lists/view/1601>

2. Ilmiy adabiyotlar

2.1. O'zbek va rus tillarida

21. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2012. – 362 b.
22. Abulqosimov H.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlar va yo'nalishlari. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2017. – 152 b.
23. Авдийский В.И. Национальная экономическая безопасность в условиях глобализации // Междунар. публ. и частное право. - 2012. - N2. - С.9-10.
24. Арбузов С. Методологические основы оценки уровня экономической безопасности // Общество и экономика. - 2017. - N6. - С.28-37.
25. Буркальцева Д. Система обеспечения экономической безопасности государства: необходимость формирования и структурные составляющие //Наука и инновации: научно-практический журнал. - 2013. - N5. - С.29-32.

26. Бухвальд Е. Макроаспекты экономической безопасности: факторы, критерии и показатели / Е.Бухвальд, Н.Гловацкая, С.Лазуренко // Вопр. экономики. - 1994. - N 12. - С.25-35.
27. Богомолов В.А. Экономическая безопасность. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 295 с.
28. Вечканов Г.С. Качество жизни населения как признак состояния общества. – СПб.: СПбГИЭУ, 2012. – 314 с.
29. Vahobov A., Tadjibaeva D., Xajibakiev Sh. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: Moliya, 2011. – 708 b.
30. Глазьев С. О неотложных мерах по укреплению экономической безопасности России и выводу российской экономики на траекторию опережающего развития (академическая версия доклада) // Рос. экон. журнал. - 2015. - N 5. - С.3-62.
31. Гордиенко Д.В. Оценка изменения уровня экономической безопасности России при реализации инициативы Экономического пояса Шелкового пути (экономическая кооперация и экономическое противоборство) // Нац. интересы: приоритеты и безопасность. - 2017. - Т.13, N4. - С.787-800.
32. Господарик Ю.П. Международная экономическая безопасность. – М.: Университет “Синергия”, 2018. – 416 с.
33. Дейч Т. Китайский капитал на рынках Африки //Азия и Африка сегодня. 2008. – № 9. – С. 27–32.
34. Игониная Л.Л. Экономическая безопасность России в системе макроэкономических инвестиционных критериев // Нац. интересы: приоритеты и безопасность. - 2013. - N 2. - С.49-57.
35. Инновационные преобразования как императив устойчивого развития и экономической безопасности России / под ред. В.К.Сенчагова. - М.: Анкил, 2013. – 684 с.
36. Корнилов М. О сущности экономической безопасности // Пробл. теории и практики управл. - 2015. - N 8. - С.123-129.

37. Кузнецова Е.И. Стратегическое управление экономической безопасностью государства. - М.: Русайнс, 2017. – 214 с.
38. Лексютина Я. Китай в БРИКС: мотивация участия // Мировая экономика и междунар отношения. — 2014. — №4. — С.81–89.
39. Митрошина Д.О. Факторы обеспечения национальной безопасности Китая в XXI веке //Актуальные направления научных исследований: перспективы развития: материалы II Междунар. науч.–практ. конф. (Чебоксары, 16 июля 2017 г.) / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2017. – С. 25-27.
40. Михеева В. Китай: угрозы, риски, вызовы развитию /В.Михеева С.С.Суслина, С.Г.Лузянин. – М.: Московский центр Карнеги, 2015. – 647 с.
41. Сенчагов В. Новые угрозы экономической безопасности и защита национальных интересов России // Пробл. теории и практики управл. - 2013. - N10. - С.8-18.
42. Титаренко М.Л. Россия и ее азиатские партнеры в глобализирующемся мире / М.Л.Титаренко. – М.: Форум, 2012. – 314 с.
43. Хайрон Л. Экономическое развитие Китая и его взаимосвязь с мировой экономикой // Проблемы упр. — Минск, 2013. — №4 (49). — С.53–57.
44. Халова Г.О. Деятельность китайских нефтегазовых компаний в государствах Централь-Азиатского региона / Г.О. Халова, А.М. Сычева, В.Ю. Спивак // Нефть, газ и бизнес. — 2013. — №12. — С.39–43.
45. Чэнь Цян. Государство в инновационной экономике Китая. — Брянск: Дельта, 2012. — 161 с.
46. Шавшуков В.М. Глобальный лидер для глобальной экономики: кто в действительности нужен? // Экон. науки. — 2012. — №8 (93). — С.181–185.
47. Шапуткин К.И. Конкурентоспособность Китая в инновационной экономике // Соврем. гуманитар. исслед. — 2014. — №2 (57). — С.36–38.

48. Шевцова Н.А. Проблемы и перспективы китайской модернизации в условиях мирового кризиса // Вестн. Рос. ун-та дружбы народов. Сер. Междунар. отношения. — 2012. — №1. — С.39–50.
49. Шевченко И.В. Внешняя энергозависимость Китая /И.В. Шевченко, Ян Фань // Экономика устойчивого развития. – Краснодар, 2014. – №3 (19). – С.15-18.
50. Шитов А. Китайский взгляд на ВТО // Междунар. экономика. — 2012. — №8. — С.17–20.
51. Ян фань. Экономика Китая в системе мирохозяйственных связей /Ян Фань, И.В. Шевченко //Экономика устойчивого развития. — Краснодар, 2013. — №4 (16). — С.214–218.

2.2 Ingliz tilidagi adabiyotlar

52. Anne O. Krueger. Trade Policy and Economic Development: How We Learn. – National Bureau of Economic Research, Working Paper 5896, January 1997. – R.7-9.
53. Bertil Ohlin. Interregional and International Trade. - Cambridge: Harvard University Press, 1933. – 123 p.
54. Bhagwati, Jaddish N. and Srinivasan, T.N. A General Equilibrium Theory of Effective protection and Resource Allocation. – Journal of International Economics, Vol. 3. - R.259-282.
55. Carsten A. China`s Economic Growth 1978–2025: What We Know Today About China`s Economic Growth Tomorrow. World Development _ Elsevier Ltd. All rights reserved. - 2008, No. 10, pp.
56. Ignatius I., Krishnamurti I. The Political-Economy of ASEAN-China FTA. University of Pelita Harapan, Karawaci, Indonesia . –2014. –30 p.
57. Sergun P. ASEAN+3: Key Positions of Cooperation and Prospects of Development
58. Severino, Rodolfo C. Southeast Asia in search of an ASEAN community. – Institute of Southeast Asian Studies, Singapore, – 2006. – 450 p.

59. Koldunova E. The Asia-Pacific Regional Institutions: Stalemate or Transformation? // Moscow State Institute of International Relations, the MFA of Russia (MGIMO – University) – 2013. 10 p.

3. Internet saytlari

60. www.stat.uz

61. www.cer.uz

62. www.press-service.uz.

63. [www. ereport.ru](http://www.ereport.ru)

64. www.iwpr.org

65. www.osce.org

66. www.unescwa.org

67. asb@gecf.org

68. <http://uz.chineseembassy.org/rus/dtxw/t197482.htm>

69. <http://www.chinastar.ru/rus/2/2/3/>

70. <http://old.press-ervice.uz/ru/gsection.scm?groupId=4421&contentId=9419>

71. <http://www.topstroy.ru/newstext2867.html>

72. http://www.ng.ru/cis/2007-01-15/6_expanison.html

73. <http://www.preservearticles.com/2012020222419/what-are-the-advantages-of-regional-economic-integration.html>

74. <http://catalog.flatworldknowledge.com/bookhub/3158?e=fwk>

75. <http://allchinacargo.ru/news/sotrudnithestvo-s-asean/>